



POLAND



POLAND

RAQSNING PLASTIK YECHIMI**Erkaboyeva Sarvinoz**

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

san'atshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14616090>

San'atning yorqin turlaridan biri bo'lgan ajoyib raqs san'ati o'zining go'zalligi, beqiyos sexri, va o'zgacha jozibasi bilan kishi dilini o'ziga rom etadi. Raqs inson qalbidagi noyob xislarni nafis harakatlar orqali namoyon etadigan san'atdir. Raqqosani xamma harakatlari betakror bir ma'noni ko'rsatib bera oladi, albatta e'tibor bilan nazar salsak bastakor musiqa orqali tomoshabinga nimani anglatmoqchi bo'lgan bo'lsa, raqqosa o'z harakatlari bilan o'sha ma'noni ifoda etib beradi.

Raqqosa ijro davomida obraziga chuquroq kirib, uni to'laqonligicha ochib berishi ustida uzoq va tinimsiz ish olib bormog'i talab etiladi. Zero, raqqosa biron-bir obraz orqali o'z raqsida nimani targ'ib etib, tomoshabinga yetkazmoqchi bo'layotganini qalban his etgan xolda ijro mahorati ila ifoda etmasa, uning raqsi faqatgina go'zal raqs harakatlarning yig'indisiga aylanib qolishi mumkin.

"Men o'limdan qo'rqmayman, chunki mening hayotim bus-butun raqsda. Raqs esa – o'lmaydi. Mening shogirdlarim uni hayot bo'ylab yana ilgari olib ketadilar, ularning shogirdlari esa bizning afsonaviy go'zal raqsimizni uzoq kelajakdagi avlodlarga yetkazadilar".

Ustoz san'atkor, buyuk raqqosa Mukarrama Turg'unboyevaning yuqorida ko'rsatilgan so'zlarini o'qir ekanmiz, haqiqatdan ham uning raqslari o'lmay hozirgi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan holda o'zbek raqs san'atimizning boy merosi bo'lib hizmat qilib kelmoqdadir. Ustozning fidoiy shogirdlari esa o'zbek raqsimizni necha avloddan-avlodga chin dildan o'rgatib saqlab kelmoqdalar. Ustozidan olgan bilimni kelajak avlodga ulashish bilan bir qatorda o'zlari ham izlanib o'zbek raqsini yana ham boyitishga, zamonga moslagan holda rivojlantirishga ozmi ko'pmi hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Shular qatorida Yulduz Ismatova tashkil etgan "Tanovar" raqs ansamblini misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Yulduz Ismatova o'z ustozining yo'lidan ketgan holda o'zbek raqs san'atiga yangi bir yo'nalishni olib kirdi.

"Tanovar" raqs ansambli o'zi tanlagan yangi yo'nalishning oldiga qo'yilgan ma'suliyatli vazifalarni ijodiy izlanishi davomida asta-sekin bartaraf etib bordi. O'z spektakllarini Toshkent teatrlari sahnalarida ijro etib, oynaijahon orqali qayta-qayta ko'rsatib, Respublikamizning turli burchaklarida konsert dasturlari



POLAND



POLAND

va raqs spektakllarini taqdim qilib, minglab tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

“O‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘riligiga aksar mutaxassislarni ishontirdi. YA’ni, oddiy folklor-etnografik ansambli darajasidan katta tarixiy – epik mavzularni ham raqs vositalari, plastik va mimik harakatlar yordamida to‘laonli aks ettiruvchi teatr mavqeiga ko‘tarildi”.

“Tanovar” raqs ansamblining ijodiy yo‘lidagi yaratgan asarlari, ya’ni uning repertuaridan o‘rin egallagan spektakllarining bir nechtasini chuqurroq o‘rganib tahlil qilishga harakat qildik. “Tanovar” raqs teatrining “Ulug‘bek burji yoki yulduzlar jilosi”, “Qadimiy marosimlar” (Moziydan nur), “Temuriy malikalar” kabi spektakllari chuqurroq ko‘rib chiqilib, ijodkorlarning ijro uslublari, mahoratlarini yanada kengroq yoritishga harakat qilingan. Chunki, bu spektakllar “Tanovar” raqs teatrini yuksalishiga, o‘z davrida ijodini porlab, yashnashiga katta hissa qo‘shgan. Ilk spektakl tahlilini biz raqs teatrining yirik o‘ziga xos o‘zbek milliy baleti darajasiga ko‘tarila olgan **“Ulug‘bek burji yoki yulduzlar jilosi”** raqs spektakliga e’tiboringizni tortgan xolda, uning yaratilish va paydo bo‘lib ijro etilishi yo‘llariga nazaringizni qaratmoqchimiz.

Necha asrlardan buyon ulug‘ bobomiz Mirzo Ulug‘bek hayotini ilmiy faoliyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish aslo susaygani yo‘q, aksincha bu qiziqish tobora kuchayib bordi. Asrlar davomida Ulug‘bek xaqida har xil adabiy, badiiy asarlar yaratildi va yaratilmoqda. “Tanovar” raqs teatrining Yulduz Ismatova tomonidan sahnalashtirilgan “Ulug‘bek burji” spektakli ham o‘zbek xalqining ajoyib qadriyatlarini ulug‘lashga munosib hissa bo‘lgan. “Ulug‘bek burji” spektaklidan parchalar ansambl tomonidan ilk marotaba Samarqanddagi Registon maydonida buyuk munajjim Mirzo Ulug‘bekning tavalludining 600 yilligiga bag‘ishlangan yubiley kechasida namoyish etilgan. Bu spektakl tomoshabinlar tomonidan juda yaxshi kutib olingan. Yulduz opa bu spektaklda asosan shu davrdagi voqealar, insonlarni ishlarini, turli xildagi xarakterlarni yulduzlar misolida ko‘rsatib berishga harakat qilganlar. Chunki, ular ilgaridan yulduzlar harakati va ularning inson taqdiriga ta’siri masalasiga, ya’ni ilmi nujum (astrologiya)ga qiziqib kelgan ekanlar. “Balet ijodkorlari taniqli astrolog Sklyarov bilan birgalikda Ulug‘bek burjini, tolenomasini o‘rganishdi, bastakorni ham tasodifan tanishmadi: Ismatova va Bafoyev munajjimlar hisobicha “aqrab” – “chayon” muchalida edilar, sayyoralar ta’sirini zukkolik bilan his etar edilar. Ulug‘bek burjini, tolenomasini tavsiflash, sayyoralar atvorini o‘rganish, yulduzlar joylashuvining “hosiylatli” va “hosiylatsiz” tomonlarini tushunish kerak edi. Asosiysi, sayyoralar ovozi eshitish kerak edi.



POLAND



POLAND

Manbalardan aniqlanishicha, har bir yulduzning o'z ohangi bor ekan, shuningdek, buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek o'z fojiasini oldindan bilgan, lekin shunga qaramasdan ilmi nujum bilan astoydil shug'ullangan, jamiyat taraqqiyati uchun qayg'urgan ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avdeyeva L., Qodirov M., Ismatova Y. "Tanavor" raqsi jilolari" T., G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002.
2. Avdeyeva L. - "Mukarrama Tug'unboyevaning raqsi", - T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989.
3. Raxmanov M. – "Uzbekskiy teatr", - T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1981.

